



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 3

Published: 20.03.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

DORIVOR XOM ASHYOLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN “UROLEKS” PREPARATINING XALQ TABOBATI VA ZAMONAVIY TIBBIYOTDA QO’LLANILISHI

T.Mullajonov¹, F.S.Abdugapparov²
“TABOBAT AFZAL” MCHJ korxonasi rahbari
Andijon davlat universiteti dotsenti (PhD)
Uzbekistan
abduqapparov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy sharoitlarda o’suvchi ayrim dorivor o’simliklarning kimyoviy tarkibi va uarning shifobaxshlik xususiyatlari to’g’risida ma’lumotlar keltrilgan. Shuningdek, maqolada siydik yo’llari infeksiya kasalliklarida qo’llaniluvchi “Uroleks” tabiiy preparatining inson salomatligiga ijobiy ta’siri to’g’risida ham so’z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Uroleks”, dala qirqbo’g’imi, pol-pola, zanjabil, xalq tabobati.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о химическом составе некоторых лекарственных растений, произрастающих в местных условиях, и о лечебных свойствах травы. Также в статье говорится о положительном влиянии природного препарата «Уролекс», применяемого при инфекциях мочевыводящих путей, на здоровье человека.

Ключевые слова: «Уролекс», осока полевая, пол-пола, имбирь, народная медицина.

Abstract: This article provides information on the chemical composition of some medicinal plants growing in local conditions and the healing properties of the herb. The article also discusses the positive effects of the natural drug "Uroleks" used in urinary tract infections on human health.

Keywords: "Uroleks", field centipede, pol-pola, ginger, folk medicine.

Language: Uzbek

Citation: Mullajonov, T., & Abdugapparov, F. (2025). USE OF THE PREPARATION "UROLEKS" MADE FROM MEDICINAL RAW MATERIALS IN FOLK MEDICINE AND MODERN MEDICINE. Universal International Scientific Journal, 2(3), 43–47. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1468>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15067144>

Dorivor o'simliklarning shifobaxshlik xususiyatlari va ulardan oqilona foydalanish insoniyatga qadimdan ma'lumdir. Bugungi kunda ham o'simlik xom ashyolari asosida tabiiy dori vositalaridan ko'plab kasalliklarni davolashda va ularning profilaktikasida keng qo'llanilib kelinmoqda. Shuningdek, fitopreparatlarning keng assortimenti va ularning miqdori yildan yilga ortib bormoqda.

Dunyo aholisining kundan kunga jadal sur'atlarda o'sib borishi va sanoat sohalarining rivojlanishi natijasida atrof muhitning ifloslanishi va ekologik vaziyatlarni keskinlashuvi sodir bo'lmoqda. Buning natijasida esa insonlarda metabolizmning buzilishi va shu bilan birga kundalik ozuqa ratsionida sintetik qo'shimchalarga ega oziq-ovqat mahsulotlarini bo'lishi turli kasalliklarni keltirib chiqaradi [1].

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlarning 80% aholisi kasalliklardan davolanishda yoki ularni profilaktikasida tabiiy manbalar asosida tayyorlangan dori vositalaridan foydalanishni afzal ko'rmoqdalar. Xalq tabobatida dorivor o'simliklarni oziq-ovqat qo'shilmalari sifatida qo'llash dunyoning ko'plab mamlakatlari amaliyotlarida mavjud.

Bunda oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqarishda tarkibi biologik faol birikmalarga boy bo'lgan o'simliklardan foydalanish ommalashib bormoqda.

Shunday o'simliklar jumlasiga dala qirqbo'g'imi (*Equisetum arvense* L.), pol-pola (*Aerva lanata*), bo'ymadoron (*Achillaea millefolium*), zanjabil (*Zingiber officinale*), rozmarin (*Rosmarinus*) kabi o'simliklarni kiritish mumkin.

Ushbu o'simliklarning gullari, poyasi, barglari, ildizlaridan qadimdan xalq tabobatida dorivor o'simlik sifatida qo'llanilib kelinadi. Ushbu o'simliklardan tayyorlangan damlama, qaynatma, nastoyka va boshqa shakldagi dori vositalaridan xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda yurak qon tomir kasalliklarida, oshqozon ichak kasalliklarida, sil kasalligi, buyrak va siydik pufagi kasalliklarida kataral dori vosita sifatida, ko'p hayz ko'rishda, burun, o'pka va oshqozondan qon ketishida, tirnoqlarning mo'rtlashishi, soch to'kilishida, turli revmatik kasalliklarda, podagra, qiyin bituvchi yaralar va boshqalarda gematostatik vositalar sifatida, shish, suyaklar sinishida va organizmning umumiy muzlashida samarali tabiiy vositalar sifatida qo'llanilib kelinadi [2].

Bu o'simliklarning bunday keng spektrdagi shifobaxshligiga ular tarkibiga kiruvchi ko'plab tabiiy biologik faol birikmalarning mavjudligidir. Bu tabiiy birikmalar sirasiga vitaminlar, uglevodlar, uglevodorodlar, terpenoidlar, saponinlar, karotinoidlar, murakkab efirlar, alkaloidlar, glikozidlar, fitosterinlar, organik kislotalar,

aldegidlar va fenol birikmalar, ligninlar kabi juda ko'plab organik birikmalarning vakillari kiradi. Shuningdek, ushbu o'simliklar tarkibida ko'plab makro- va mikroelementlar ham uchraydi.

Ma'lumki, ko'plab organlar qatori organizmda qator faoliyatlarni boshqarishda buyrakning ahamiyati juda katta bo'lib, u organizmdan ikkilamchi metabolitlar, ortiqcha suv va tuzlar, ba'zi dori preparatlarni parchalanish mahsulotlarini chiqarib tashlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, buyraklar oranizmda pH muvozanatini boshqarishda va osmoregulyatsiya jarayonida faol ishtirok etadi. Buyrakning endokrin sistemasidagi faoliyati rening, eritropoetit, urokinaza moddalarini ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi. Buyrak organizmda shuningdek, uglevod, yog', oqsil, va mineral moddalar almashinuvida faol ishtirok etadi. Buyrak siydik ajratish tizimining asosiy organi hisoblanib, bundan tashqari siydik kanallari va qovuq kabi organlar ham shu tizimning qismlaridir.

Organizmning shamollashi, turli dori vositalari dozasining ortib ketishi, atrof-

muhitning keskin ifloslanishi va boshqa omillar ta'sirida buyraklarda turli kasalliklar kelib chiqadi [3].

Shunday kasalliklardan biri buyrak infeksiya kasalliklaridir. Buyrak infeksiya kasalliklariga pielonefrit, buyrak absessi va karbunkuli, apostematik pielonefrit kabi kasalliklar kiradi. Ushbu kasalliklarni kelib chiqishida *E. Coli*, *P. mirabilis*, *Klebsiella spp*, *P. Aeruginosa*, *Enterobacter spp*, *Acinetobacter spp*, *S. Marcescens*, *Citrobacter spp*, *Morganella spp* kabi grammanfiy va *S. aureus*, *S. Epidermidis*, *S. Saprophyticus*, *E. Faecalis* kabi qator patogen mikroorganizmlar sabab bo'ladi [4].

Buyrak infeksiya kasalliklarini davolashda uroseptiklar, antibiotiklar, immunostimulyatorlar va kortikosteroidlar kabi tabiiy va sintetik dori vositalaridan foydalaniladi. Bunday hollarda preparatlar yallig'lanishni hosil qilgan mikroorganizmlarning turlariga qarab belgilanadi.

Bugungi kunda zamonaviy tibbiyotda buyrak kasalliklarini davolashda infeksiyalarini va yallig'lanishlarni bartaraf etishda antibiotiklardan keng

foydalanib kelinadi. Antibiotiklarga aminoglikozidlar, ansamtsinlar, makrolidlar, azalidlar, monobaktamlar, penitsillinlar, tetratsiklinlar va sefalosporinlarning barcha vakillarini kiritish mumkin.

Tikartsillin, Augmentin, Timentin, Klamosar, Xikontsil, Flemoksin solyutab, Ospamoks, Amoksiklav, Gryunamoks kabi preparatlar, buyrak infeksiyasi kasalliklarida Sefuroksim, Sefotaksim, Seftriakson, Sefalekssin, Kefleks, Ospeksin, kabi sefalosporin antibiotiklar va Sipromed, Ofloksatsin, Siprofloksatsin, Levofloksatsin kabi tarkibida ftor saqllovchi ftorxinolon antibiotiklardan foydalaniladi [5].

Ushbu preparatlar kasallikni davolashda ijobiy samara berishi bilan birga organizmda noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, Sefalekssin preparatini qabul qilish organizmda kasallikni bartaraf etish bilan birga bosh og'rig'i, uyquchanlik, gallyutsinatsiya kabi asab tizimi holatlarini keltirib chiqarsa, leykopeniya, neytropeniya, trombotsitopeniya va eozinofiliya holatlari yurak qon-tomir tizimida kuzatiladi.

Shuningdek, terida qichishish, toshmalar toshishi, angionevrotik shishlar paydo bo'lishi, anafilaktik shok va artralgiya kabi allergik reaksiya holatlarini keltirib chiqaradi [6].

Xulosa. Ma'lumki, siydik yo'llari va buyrak kasalliklarni davolashda va uning profilaktikasida ham dorivor o'simliklardan foydalanish (fitoterapiya) bugungi kunda ham dolzarb masalalardan xisoblanadi.

Biz tomonimizdan dala qirqbo'g'imi (*Equisetum arvense* L.), pol-pola (*Aerva lanata*), bo'ymadoron (*Achillaea*

millefolium), zanjabil (*Zingiber officinale*), rozmarin (*Rosmarinus*) va mo'miyo kukuni asosida tayyorlangan "Uroleks" tabiiy dori preparatini buyraklarda turli infeksiyalar natijasida kelib chiquvchi sistit, pielonefrit va uretrit kabi kasalliklarni o'tkir va surunkali shakllarini davolashda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Ushbu preparat tabiiy manbalar asosida tayyorlangani bois organizmda noxush holatlarni keltirib chiqarmaydi. Bu esa bugungi kunda inson salomatligini saqlashda muhim omillardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.R.Asqarov. Fitoterapiya. Darslik.-Darslik.-T.: "-Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi"-2023 1120 b.
2. И.Р.Асқаров. . "Табобат қомуси". Тошкент. "MUMTOZ SO'Z». 2019.1142 б.
3. Острое повреждение почек / А.В. Смирнов, В.А. Добронравов, А.Ш. Румянцев, И.Г. Каюков. – Москва : Медицинское информационное агентство, 2015. – 484 с.
4. Т.Н. Краснова. Инфекция мочевыводящих путей. Клиницист. №2. 2008. С.23-27
5. Яковлев С.В. Антибактериальная терапия обострения хронического пиелонефрита в стационаре. *Consilium Medicum* 2005;5:372—5.
6. Чурина О.С., Шукиль Л.В. Характеристика побочных действий антибактериальных препаратов. // Омский научный вестник. 2012. –№2 (114). – С. 86–89.